

- ekologik muammolarni kamaytirish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston moliya bozorini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida moliya sektorida amalga oshirilayotgan kapital bozorini rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda moliya tizimining barqarorligini ta'minlash kabi islohotlar ko'zda tutilgan davr mobaynida amalga oshirilishi- tizimdagi mavjud muammolarni hal etadi. Shu bilan birga, moliya bozorining samarali rivojlanishini ta'minlash uchun ESG tamoyillarini joriy etish orqali bozor barqarorligini oshirishga erishish mumkin. Bu standartlarini qo'llash nafaqat investorlar ishonchini oshirishga, balki barqaror iqtisodiy rivojlanishga, muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga, O'zbekistonning global darajadagi nufuzini yanada yaxshilashga dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida O'zbekiston moliya tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, ESG moliya instrumentlarini keng joriy etish hamda kapital bozorini chuqurlashtirish mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobotlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlari.
4. World Bank. Global Financial Development Report.
5. OECD. ESG and Sustainable Finance Report.
6. UNDP. Sustainable Finance Framework.
7. International Finance Corporation. ESG Integration in Financial Markets.

Internet manbalari

1. <https://www.gov.uz>
2. <https://www.cbu.uz>
3. <https://www.worldbank.org>
4. <https://www.oecd.org>
5. <https://www.ifc.org>
6. <https://www.un.org>
7. <https://www.esgnews.com>

YASHIL MOLIYALASHTIRISH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi yashil moliyalashtirish tizimining nazariy asoslari hamda uning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'рни tahlil qilinadi. Yashil moliyalashtirish barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan muhim moliyaviy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Yashil moliyalashtirish tushunchasi, uning shakllanish bosqichlari va asosiy instrumentlari, jumladan, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar hamda barqaror investitsiyalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *Yashil moliyalashtirish, barqaror rivojlanish, yashil investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, ekologik iqtisodiyot, moliyaviy instrumentlar, ESG tamoyillari, iqlim o'zgarishi, barqaror investitsiya siyosati.*

So'nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda moliya tizimining roli ayniqsa muhim bo'lib, iqtisodiyotning ekologik jihatdan barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun yashil moliyalashtirish mexanizmlaridan keng foydalanish zarurati ortib bormoqda. Yashil moliyalashtirish iqtisodiy faoliyatni atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirishga yo'naltirilgan moliyaviy instrumentlar va investitsiyalar tizimini anglatadi. Mazkur yo'nalish global miqyosda barqaror rivojlanish strategiyalarining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib bormoqda.

Bugungi kunda ko'plab davlatlar iqtisodiy siyosatida yashil moliyalashtirishni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari hamda Parij kelishuvi doirasidagi majburiyatlar mamlakatlarni ekologik barqaror iqtisodiyotni shakllantirishga undamoqda.

O'zbekiston ham global ekologik muammolarni hal etish hamda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish maqsadida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, mamlakatda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi 2019–2030-yillar uchun" Prezident qarori asosida qabul qilinib, unda ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur strategiyaga ko'ra, 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasini sezilarli darajada kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini oshirish rejalashtirilgan [1]. Shuningdek, mazkur strategiya yashil investitsiyalar bozorini shakllantirish va ekologik loyihalarni moliyalashtirish tizimini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish maqsadida so'nggi yillarda bir qator davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2025-yilda qabul qilingan "Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili" davlat dasturi doirasida ekologik barqarorlikni ta'minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda yashil loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu dastur mamlakat iqtisodiyotida yashil transformatsiyani amalga oshirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda iqlim o'zgarishiga moslashuv choralarini kuchaytirishga qaratilgan [2].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2026-yilga borib mamlakatda 2 gigavatt yangi qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini ishga tushirish rejalashtirilgan bo'lib, buning natijasida elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibida "yashil energiya" ulushi 30 foizga yetkazilishi ko'zda tutilgan. Mazkur loyihalarni amalga oshirish uchun 516 million AQSH dollaridan ortiq xorijiy investitsiyalar va kredit mablag'lari jalb qilinishi rejalashtirilgan [3].

Bundan tashqari, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida davlat tomonidan qator institutsional mexanizmlar ham joriy etilmoqda. Jumladan, mamlakatda yashil

moliyalashtirish milliy dasturini ishlab chiqish, ekologik loyihalarni baholash tizimini joriy etish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish rejalashtirilgan. Ushbu tashabbuslar doirasida yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish uchun taxminan 250 million AQSH dollari miqdorida mablag' jalb etilishi ko'zda tutilgan [3].

Shuningdek, davlat siyosatida ekologik toza ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, 2030-yilga qadar davlat xaridlarida ekologik toza mahsulotlar ulushini 30 foizga yetkazish rejalashtirilgan bo'lib, bu esa yashil texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi.

Yashil moliyalashtirish masalalari so'nggi yillarda iqtisodiyot va moliya sohasida faol tadqiq etilayotgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, N. Volz va D. Weber o'z tadqiqotlarida yashil moliyalashtirishni barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi muhim moliyaviy mexanizm sifatida baholab, yashil obligatsiyalar va ekologik investitsiyalarning global iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilganlar. Ularning fikriga ko'ra, yashil moliyalashtirish orqali ekologik loyihalarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish mumkin.

Shuningdek, S. Labatt va R. White tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil moliyalashtirishning asosiy tamoyillari, ekologik investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari hamda moliya institutlarining ushbu jarayondagi roli keng yoritilgan. Tadqiqotchilar yashil moliyalashtirish barqaror rivojlanish strategiyalarining muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydilar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, global miqyosda yashil moliyalashtirish bozori jadal rivojlanib bormoqda. Xalqaro moliya tashkilotlari ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'yicha chiqarilgan yashil obligatsiyalar hajmi 500 milliard AQSH dollaridan oshgan. 2024-yilga kelib esa ushbu ko'rsatkich 600 milliard dollardan ortiqni tashkil etgan. Bu esa investorlar orasida ekologik barqaror loyihalarga bo'lgan qiziqish tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa energetika, transport, suv resurslarini boshqarish va chiqindilarni qayta ishlash sohalari yashil investitsiyalar jalb qilinayotgan asosiy yo'nalishlar hisoblanadi [4].

1-jadval

Yashil moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari va moliyalashtirish hajmi⁷⁴

T/R	Yo'nalish	Moliyalashtirish turi	Global investitsiyalar hajmi (2023)	Asosiy maqsad
1	Qayta tiklanuvchi energiya	Yashil obligatsiyalar, kreditlar	300 mlrd AQSH dollari	Quyosh va shamol energiyasini rivojlantirish
2	Energiya samaradorligi	Imtiyozli kreditlar	120 mlrd AQSH dollari	Energiya sarfini kamaytirish
3	Ekologik transport	Yashil investitsiyalar	60 mlrd AQSH dollari	Elektr transport va ekologik infratuzilma
4	Chiqindilarni qayta ishlash	Davlat grantlari va investitsiyalar	20 mlrd AQSH dollari	Atrof-muhitni muhofaza qilish

⁷⁴ Bloomberg NEF, International Energy Agency ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ushbu jadvalda yashil moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari va ularni moliyalashtirish hajmi ko'rsatilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, global miqyosda eng katta investitsiyalar qayta tiklanuvchi energiya sohasiga yo'naltirilmoqda. 2023-yilda ushbu yo'nalishga 300 milliard AQSH dollaridan ortiq mablag' jalb qilingan. Energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali ishlab chiqarish jarayonlarida energiya sarfini kamaytirish mumkin [5]. Ekologik transport tizimini rivojlantirish va chiqindilarni qayta ishlash sohalari ham yashil iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Mazkur yo'nalishlar atrof-muhitni muhofaza qilish, karbon chiqindilarini kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston misolida ham yashil moliyalashtirish tizimini rivojlantirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda 2019–2030-yillarga mo'ljallangan yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi qabul qilingan bo'lib, unda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish hamda ekologik barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur strategiyaga ko'ra, 2030-yilga qadar elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25–30 foizga yetkazish rejalashtirilgan [6].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda O'zbekistonda quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. 2024-yil yakuniga ko'ra mamlakatda umumiy quvvati 3 gigavattga yaqin bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya loyihalari ishga tushirilgan. Ushbu loyihalarga 2 milliard AQSH dollaridan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb qilingan. Natijada yiliga millionlab tonna karbonat angidrid chiqindilarining kamayishi kutilmoqda [7].

Yashil moliyalashtirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ushbu tizimni yanada rivojlantirish, moliyaviy instrumentlar doirasini kengaytirish hamda ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yashil moliyalashtirish nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, balki ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ham qo'llab-quvvatlaydi. Global va mahalliy statistik ma'lumotlar yashil obligatsiyalar, ekologik investitsiyalar va qayta tiklanuvchi energiya loyihalari orqali amalga oshirilayotgan moliyaviy jarayonlarning jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlat siyosati va normativ hujjatlar bu jarayonni tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijalar shuni isbotlaydiki, yashil moliyalashtirish iqtisodiyotning barqaror va ekologik jihatdan xavfsiz rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Volz, N., & Weber, D. (2021). *Green finance: Principles and applications*. Springer.
2. Labatt, S., & White, R. (2017). *Environmental Finance and Investment Strategies*. Routledge.
3. United Nations. (2015). *Sustainable Development Goals*. UN Publications.
4. Paris Agreement. (2016). *United Nations Framework Convention on Climate Change*.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori. (2019). *Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi 2019–2030*. Tashkent.

6. Uzbekistan Government. (2025). *Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili davlat dasturi*. Tashkent.

7. *Uzdaily*. (2024). *Uzbekistan plans to expand green energy to 30% of power generation in 2026*.

8. *Kursiv Media*. (2025). *Uzbekistan develops national green finance programme*.

O‘ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA ESG STANDARTLARI ASOSIDA NARX SHAKLLANISHI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Hasanova Sadoqat Bahodir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida to‘qimachilik sanoatida ESG (Environmental, Social, Governance) standartlarini joriy etishning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, to‘qimachilik korxonalarida xarajatlarni boshqarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda narx shakllanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda ESG tamoyillarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, eksport salohiyatini oshirish hamda global bozorda raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ESG standartlari, to‘qimachilik sanoati, narx shakllanishi, xarajatlarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, eksport salohiyati.*

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik va ijtimoiy mas‘uliyat bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli so‘nggi yillarda xalqaro iqtisodiy amaliyotda ESG (Environmental, Social, Governance) standartlari korporativ boshqaruvning muhim elementi sifatida keng qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham sanoatni barqaror rivojlantirish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va ijtimoiy mas‘uliyatni kuchaytirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida sanoatni modernizatsiya qilish, eksport hajmini oshirish hamda ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim vazifalar sifatida belgilangan. [1]

Mazkur jarayonda to‘qimachilik sanoati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu soha mamlakat eksportining muhim qismini tashkil etadi hamda ko‘plab ish o‘rinlarini yaratadi. Shu bilan birga, to‘qimachilik sanoati ishlab chiqarish jarayonlarida katta hajmdagi xom ashyo, suv va energiya resurslaridan foydalanadi. Bu esa ESG standartlarini joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi.[2]

ESG standartlarining to‘qimachilik sanoatidagi ahamiyati. ESG tamoyillari korxonalarining barqaror rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan uchta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillari.

Environmental (Ekologik omillar). Ekologik komponent ishlab chiqarish jarayonining atrof-muhitga ta‘sirini kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, to‘qimachilik sanoatida energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda chiqindilarni qayta ishlash orqali namoyon bo‘ladi. Xalqaro bozorlarda OEKO-TEX va GOTS kabi ekologik sertifikatlash tizimlari tobora muhim